



Jasur KENJAYEV,
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti, PhD
E-mail: aslov6699@gmail.com

THE UNIQUE INSTITUTIONAL ROLE OF THE OMBUDSMAN IN THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS

Annotation

In this article, the powers given to the human rights representative (Ombudsman) of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, which has the status of a national institution for the protection of human rights and interests in our country, and the improvement of his activities, the request to the Ombudsman for a new stage of development of our country and the political and legal basis of matching the criteria are indicated. Also, specific practical aspects related to the organization of the activities of the Children's Rights Representative (Children's Ombudsman) in our country were analyzed.

Keywords: human rights representative, Children's Ombudsman, non-governmental non-profit organizations, UN, democratic reforms, "people's defender".

ОСОБАЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ РОЛЬ ОМБУДСМАНА В ЗАЩИТЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются полномочия Уполномоченного по правам человека (Омбудсмена) Олий Мажлиса Республики Узбекистан, имеющего статус национального учреждения по защите прав и интересов человека в нашей стране, и совершенствование его деятельности обозначены запросы к Омбудсмену на новый этап развития нашей страны и политико-правовая основа соответствия критериям. Также были проанализированы конкретные практические аспекты, связанные с организацией деятельности Уполномоченного по правам ребенка (детского омбудсмена) в нашей стране.

Ключевые слова: представитель по правам человека, Детского омбудсмена, неправительственные некоммерческие организации, ООН, демократические реформы, «народный защитник».

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA OMBUDSMANNING O'ZIGA XOS INSTITUTIONAL ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi milliy institut maqomiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga berilgan vakolatlar va uning faoliyatini takomillashtirish, davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga Ombudsmanga qo'yilgan talab va mezonlarini moslashning siyosiy-huquqiy asoslari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, davlatimizda Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) faoliyatini tashkil etilishi bilan bog'liq o'ziga xos amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmani, nodavlat notijorat tashkilotlar, BMT, demokratik islohotlar, "xalq himoyachisi".

Kirish. Jamiyatda inson huquqlari masalasi, uning ham nazariy va ham amaliy ahamiyati, uni amalga oshirishning tashkiliy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, lekin mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tashkilotlarining faoliyati prinsipial ahamiyatga egaligini ham inobatga olish kerak.

Hozirgi kunga kelib O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 70 ta asosiy hujjatga qo'shilgan, BMT tomonidan qabul qilingan 10 ta xalqaro shartnomaning bevosita ishtirokchisidir. Milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarni tizimli va bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o'z modeli, insonning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirildi [1].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" yuzasidan qilgan ma'ruzasida shunday degan edi: "Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hoziigi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda..." [2]. Zotan, bizning jamiyatimizda

inson sha'ni, qadr-qimmatini va qonuniy manfaatlarini asosi ning huquqlari va erkinliklari tamoyilidan kelib chiqadi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar tizimi shakllantirildi. Tizimga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Xotin-qizlar qo'mitasi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, biznes-ombudsman, Bola huquqlari bo'yicha ombudsman va boshqa NNTlar kiradi.

Ularning faoliyati inson huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ombudsman instituti va inson huquqlarini himoya qilish masalalari mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. O'zbek olimlari, jumladan D. Bazarova [1], X.T. Odilqoriyev [16], A.R. Mo'minov, A.X. Saidov [4] Ombudsman institutining demokratik institut sifatidagi rolini tahlil qilgan. I.A. Karimov [2] fuqarolik jamiyati va NNTlar faoliyati doirasida Ombudsman ahamiyatini ta'kidlagan. Xorijiy tadqiqotlar esa Skandinaviya, Yevropa Ittifoqi va BMT doirasidagi Ombudsman tajribasi, shuningdek Bolalar ombudsmani institutini BMT Konvensiyasi asosida o'rganishni ko'rsatadi [7].

Xorijiy adabiyotlarda Ombudsman institutining kelib chiqishi, evolyutsiyasi va zamonaviy modellari keng o'rganilgan. Skandinaviya mamlakatlari tajribasi, Yevropa Ittifoqi va BMT doirasidagi Ombudsman faoliyati ushbu institutning universal xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Bolalar ombudsmani masalasi esa asosan BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi doirasida tahlil qilinib, Norvegiya, Shvetsiya va boshqa davlatlar tajribasi asosida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus huquqiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, tizimli va mantiqiy yondashuv metodlari qo'llanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ombudsman va Bolalar ombudsmani to'g'risidagi qonunlar, Prezident farmonlari hamda xalqaro huquqiy hujjatlar manba sifatida o'rganildi. Shuningdek, Ombudsman faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotlar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirib, berilgan vakolatlar asosida buzilgan huquqlarni tiklash bilan birga ushbu sohadagi qonunchilikni rivojlantirishga ham hissa qo'shadi [3]. Bugungi kunda O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar nosudlov himoya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo'lib, ularning faoliyati xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilib, muntazam takomillashtirib borilmoqda [4].

Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning 56-moddasida milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilishi, davlat tomonidan ularning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi belgilangan. Bu milliy institutlar faoliyatining mustahkam huquqiy asosini ko'rsatadi. O'zbekiston xalqaro tajribalarga tayangan holda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini shakllantirdi va muhim elementi sifatida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti tashkil etildi [5]. Ombudsman fuqarolar murojaati yoki o'z tashabbusi bilan tekshiruvlar o'tkazib, huquqbuzarlik aniqlanganda tegishli organlarga tavsiya beradi, zarur hollarda sud yoki parlamentga murojaat qiladi [6].

Din Gotterer ta'kidlaganidek, ombudsman instituti tarixiy ildizlarini islom mafkurasidagi adolat tamoyiliga borib taqaladi, Xalifa Umar davrida shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun muhtasib mansabi joriy etilgan. Zamonaviy ombudsman instituti 1718-yilda Shvetsiyada qirol oliy ombudsmani sifatida shakllanib, 1809-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq parlament ombudsmani sifatida mustahkamlandi. Finlyandiya 1919-yilda shved modeli asosida inson huquqlari bo'yicha Vakil instituti joriy etildi [7]. 1975-yilda Portugaliya, 1978-yilda Ispaniyada institut kengaytirildi, hozirda 120 dan ortiq mamlakatda tan olingan. Yevropa Ittifoqida 1995-yildan, BMTda esa 2001–2002-yillarda Ombudsman kotibiyati tashkil etildi [8]. Turli mamlakatlarda institut nomi farq qiladi: Shvetsiya, Daniya, Polsha, Kanada - ombudsman; Ispaniya, Kolumbiya - xalq himoyachisi; Fransiya - vositachi; Ruminiya - xalq advokati; Rossiya - inson huquqlari bo'yicha vakil. O'zbekistonda esa inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili parlament deputatlari orasidan saylanadi.

Milliy tarixda muhtasiblik idorasi va zamonaviy ombudsman instituti o'rtasida mushtarak jihatlar mavjud: har ikkala institut sud yurisdiksiyasiga taalluqli ishlarni ko'rib chiqmaydi, vakolatlarini mustaqil amalga oshiradi va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi [9]. O'zbekistonda Ombudsman instituti Birinchi Prezident tashabbusi bilan 1995-yilda Oliy Majlis huzurida tashkil etilib,

fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qiluvchi Komissiya tuzildi va 1995-yil 29-avgustdagi Nizom asosida faoliyat yuritdi. Huquqiy maqomini mustahkamlash uchun 1997-yil 24-aprelda "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va 2004-yilda yangi tahrirda tasdiqlandi [10]. Ombudsman davlat va jamiyat o'rtasida ijtimoiy-huquqiy ko'prik bo'lib, inson huquqlarining samarali ta'minlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini parlament nazorat qilish bilan shug'ullanadigan mustaqil mansabdor shaxsdir. U inson huquqlarini himoya qilishning mavjud shakl va vositalarini to'ldiradi, qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda fuqarolarning huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi [11]. Vakil deputatlar orasidan besh yil muddatga saylanadi, faoliyatini Konstitutsiya, qonunlar va xalqaro huquq prinsiplari asosida olib boradi va Oliy Majlisga hisob beradi. Uning faoliyati qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm, insonparvarlik va oshkoralik tamoyillariga asoslanadi, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega [12]. Ombudsman nafaqat maxsus qonun, balki Kotibiyat nizomi va Komissiya reglamenti asosida ishlaydi, fuqarolarga xolis, tezkor va bepul yordam ko'rsatadi hamda davlat organlari faoliyatining qonuniy va adolatli bo'lishini ta'minlaydi [13].

Vakil o'z faoliyatida 1994-yil 6-maydagi "Fuqarolar murojaatlari to'g'risida"gi Qonun, 1995-yil 30-avgustdagi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonun, boshqa milliy qonunlar hamda inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarga amal qiladi. Shuningdek, 2003-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida Vakilni saylash tartibi belgilangan. "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi esa inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi Inson huquqlari bo'yicha vakil keng huquqiy vakolatlariga ega bo'lib, uning faoliyati davlat va fuqarolar, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Vakilning asosiy funksiyalari to'rt yo'nalishda amalga oshadi:

Tarbiyaviy-ma'rifiy: jamiyatga inson huquqlari, ularning kafolatlari va burchlari haqida axborot berish va ularni keng tushuntirish;

Himoyaviy: fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqish, huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berish;

Analitik: inson huquqlari buzilishining sabablarini o'rganish, milliy va xalqaro huquq normalari muvofiqligini tekshirish, tegishli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

Xalqaro hamkorlik: chet el tajribasini o'rganish va jahon jamoatchiligini respublikadagi inson huquqlari holati bilan xabardor qilish.

Ushbu faoliyat O'zbekistonda inson huquqlari himoyasini mustahkamlash, ularning hurmat qilinishini ta'minlash va demokratiya hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi [14]. U shikoyatlarni ko'rib chiqadi, huquqbuzarliklarni aniqlaydi, tavsiyalar beradi va javobgarlikni ta'minlaydi. 2000-yildan mintaqaviy vakillar barcha hududlarda faoliyat yuritib,

murojaatlarni tekshiradi, ozodlikdan mahrum etish joylariga chiqadi va deputatlik kengashlarida axborot taqdim etadi [15]. Faoliyat yo'nalishlari milliy qonunchilikka rioya etishni nazorat qilish, fuqarolar ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish, mintaqaviy vakillar, milliy institutlar va NNTlar bilan hamkorlik, axborot-ma'rifiy va xalqaro faoliyatni o'z ichiga oladi [16]. Ombudsman fuqarolik jamiyati va huquqiy madaniyatni rivojlantirish instituti sifatida xizmat qiladi.

Yangi islohotlar doirasida Bolalar huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar Ombudsmani) instituti tashkil etilib, bolalar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bolalarni qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Bu institut dunyoning saksonga yaqin mamlakatida faoliyat yuritadi va BMTning "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi qoidalarini milliy qonunchilikka tatbiq etadi. O'zbekiston 1992-yil 9-dekabrda Konvensiyani ratifikatsiya qilib, milliy tizimni takomillashtirish va xalqaro majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yil 11-avgustdagi Prezident farmoni asosida Bolalar ombudsmani mustaqil institut sifatida ish boshladi, uning vazifalari bolalarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, profilaktik choralar ko'rish, davlat dasturlari ijrosini nazorat qilish va monitoring qilishni o'z ichiga oladi [17]. "Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)" to'g'risidagi Qonuniga ko'ra, vakil davlat organlari, korxonalar, muassasalar va mansabdor shaxslarning

bola huquqlari qonunchiligiga rioya etilishini parlament nazorati orqali ta'minlaydi, huquqbuzarliklarni aniqlab, tegishli choralar ko'radi, sud jarayonlarida ishtirok etadi, xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshiradi [18, 19, 20].

Bugungi kunda Ombudsman instituti davlat organlari va jamiyat o'rtasida ijtimoiy-huquqiy ko'priq vazifasini bajarib, inson huquqlarini himoya qilishni mustahkamlab, fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, Ombudsman va Bolalar ombudsmani O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning markaziy va samarali milliy institutlariga aylangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda Ombudsman va Bolalar ombudsmani institutlari inson huquqlarini himoya qilishning samarali va muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu institutlar davlat va jamiyat o'rtasida ijtimoiy-huquqiy ko'priq vazifasini bajarib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida Ombudsman institutining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Ombudsmanning tavsiyalarini ijro etish mexanizmlarini kuchaytirish, raqamli murojaatlar tizimini yanada rivojlantirish, inson huquqlari bo'yicha ma'rifiy dasturlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish. Bolalar ombudsmani faoliyatida esa bolalar ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlarni joriy etish va hududiy vakolatxonalar faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Базарова Д. "Инсон кадр-киммати – энг олий кадрят" махсус ўқув модули. "Фуқаролик жамияти" умумназарий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий журнал. 2020, -№2. – Б. 49.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 42.
3. Инсон ҳуқуқлари умумий назарияси: ИИВ тизимидаги таълим муассасалари тингловчи ва курсантлари, шунингдек ҳуқуқни муҳофаза этувчи органлар ходимлари учун дарслик. – Т., 2012. –304 б. – Б. 101.
4. Inson huquqlari: darslik / A.R.Mo'minov, M.A.Tillabayev; mas'ul muharrir A.X.Saidov. 2-nashr. – T.: Adolat, 2013. – B. 427.
5. Сагдуллаева Д.Ш. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослар. Фалс. фан. ном. ...дисс. – Т.: 2010. –Б. 115.
6. Конституциявий ҳуқуқ (изоҳли луғат). А.Азизхўжаев, О.Хусанов, Х.Азизов. – Т., "Академия". 2001. – Б. 75.
7. Сарабеков А.А. "Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини халқаро миқёсда ҳимоя қилиш". Рисола – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. – Б. 79.
8. Конституциявий ҳуқуқ (изоҳли луғат). А.Азизхўжаев, О.Хусанов, Х.Азизов. – Т.: "Академия". 2001 й. – Б. 75.
9. Сарабеков А.А. "Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини халқаро миқёсда ҳимоя қилиш". Рисола -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. –Б. 78.
10. Сагтаров А. Омбудсман – ҳуқуқ ҳимоячиси (хорижий ва миллий тажриба). – Т., 2000. 34-бет.
11. Ўзбекистон Республикасининг "Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) тўғрисида"ги Қонуни. 27 август 2004 йил.
12. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. Масъул муҳаррир ва муаллифлар жамоасининг раҳбари Б.Мустафоев. -Т: «Ўзбекистон нашриёти», 2006 йил. – Б. 202.
13. Инсон ҳуқуқлари умумий назарияси: ИИВ тизимидаги таълим муассасалари тингловчи ва курсантлари, шунингдек ҳуқуқни муҳофаза этувчи органлар ходимлари учун дарслик. –Т., 2012. – Б. 102.
14. Олий Мажлис Инсон ҳуқуқлари бўйича вакилининг (омбудсманнинг) 2003 йилги фаолияти тўғрисида ҳисобот. – Т., 2004, 5-бет.
15. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази расмий веб-сайти: <http://insonhuquqlari.uz/uz/menu/natsionalnye-institut>
16. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: «Adolat», 2018. – B. 357.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 09.08.2021 йилдаги ПФ-6275-сон. <https://lex.uz/docs/5570490>
18. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 29 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг "Бола ҳуқуқлари бўйича вакили (Болалар омбудсmani) тўғрисида"ги ЎРҚ-917-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/6823379>
19. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.02.2024 йилдаги ЎРҚ-917-сон. <https://lex.uz/docs/6823379>
20. https://www.norma.uz/qonunchilikdayangi/bolalar_ombudsmani_qandayfaoliyatuyuritadi